# JADIDLAR G‘OYASI — YANGI O‘ZBEKISTON VA “UCHINCHI RENESSANS”NI BUNYOD ETISHNING MUSTAHKAM POYDEVORI

**MAQOLALAR TO‘PLAMI**

*Ushbu maqolalar to‘plami, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining davlat granti, Buxoro viloyati “Shashmaqom” va nomoddiy madaniy merosni o‘rganish markazining “Jadidlar g‘oyasi – Yangi O‘zbekiston va uchinchi renessansni bunyod etishning mustahkam poydevori” loyihasi asosida nashr etildi.*

**BUXORO-2024**
**“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti**

**"JADIDLAR G'OYASI — YANGI O'ZBEKISTON VA "UCHINCHI RENESSANS"NI BUNYOD ETISHNING MUSTAHKAM POYDEVORI", – [matn] Maqolalar to'plami, Buxoro-2024, "BUKHARA HAMD PRINT" nashriyoti, 588 b.**

# TASHKILIY ISHCHI GURUHI TARKIBI

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1.** | **Naimov Azamat Hikmatovich** | - | Buxoro viloyati oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i |
| **2.** | **Ma'murov Bahodir Baxshulloyevich** | - | Buxoro davlat pedagogika instituti pedagogika fanlari doktori (DSc), professor. |
| **3.** | **Sulaymonov Shodmon Sultonovich** | - | Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo'limi raisi, Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, ha'kamlar hay'ati raisi o'rinbosari |
| **4.** | **Sanoyev G'aybullo Abdurahmonovich** | - | Buxoro viloyati oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi ta'lim jarayonini tashkil sho'basi yetakchi mutaxassisi |
| **5.** | **Artikova Hafiza To'ymurodovna** | - | Buxoro davlat pedagogika institutining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Biologiya fanlari doktori (DSc), professor |
| **6.** | **Murodov SHerzod Normonovich** | - | Buxoro davlat pedagogika instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, |
| **7.** | **Muxtorov Erkin Mustafoyevich** | - | Buxoro davlat pedagogika instituti O'quv ishlari bo'yicha prorektori, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent |
| **8.** | **Hayitov Hamza Ahmadovich** | - | Buxoro davlat pedagogika instituti tillar fa'kulteti dekani, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. |
| **9.** | **Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich,** | - | Buxoro davlat pedagogika instituti Sirtqi bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent |
| **10.** | **Sharipov Abduhakim Ziyoitdinovich** | - | Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, Falsafa fanlari doktori (DSc), professor |
| **11.** | **Muxammedov Shavkat Madjidovich** | - | Buxoro davlat pedagogika instituti magistratura bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent |
| **12.** | **Rajabov San'atjon Sunnatovich** | - | Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi, O'qituvchisi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 13. | Jo'rayev Qo'ldosh Ismatullayevich | - | Buxoro davlat pedagogika instituti Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i |
| 14. | Yarasheva Dilrabo G'aniyevna | - | Buxoro viloyati "Shashmaqom" va nomoddiy madaniy merosni o'rganish markazi direktori |
| 15. | Nematov Doniyor Yunusovich | - | Loyihani amalga oshirish bo'yicha tajribali mutaxassis |

## HAKAMLAR HAY'ATI TARKIBI

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1. | Inoyatov Sulaymon Inoyatovich | - | Buxoro davlat universiteti, Tarix fanlari doktori, professor - Hakamlar hay'ati raisi |
| 2. | Amonov Ulug'murod Sultonovich | - | Buxoro davlat pedagogika instituti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Hakamlar hay'ati raisi o'rinbosari |
| 3. | Sulaymonov Shodmon Sultonovich | - | Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo'limi raisi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, ha'kamlar hay'ati raisi o'rinbosari |
| 3. | Sanoyev G'aybullo Abdurahmonovich | - | Buxoro viloyati oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi ta'lim jarayonini tashkil sho'basi yetakchi mutaxassisi |
| 4. | Safarova Hilola Oxunjonovna | - | Buxoro davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent |
| 5. | Mirxanova Gulandom Rustamovna | - | Buxoro davlat pedagogika instituti O'zbek va rus tillari kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) |
| 6. | Hayitov Hamza Ahmadovich | - | Buxoro davlat pedagogika instituti tillar fa'kulteti dekani, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. |
| 7. | Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich | - | Buxoro davlat pedagogika instituti Sirtqi bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari (DSc), dotsent |
| 8. | Akramova Gulbahor Rinatovna | - | Buxoro davlat pedagogika instituti Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor |
| 9. | Jo'rayev Qo'ldosh Ismatullayevich | - | Buxoro davlat pedagogika instituti Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i |
| 10. | Muxammedov Shavkat Madjidovich | - | Buxoro davlat pedagogika instituti magistratura bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent |

# BOLALAR ADABIYOTINI O'QITISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

***Saparova Shahlo Ramazonovna***
*Buxoro Davlat Universiteti tayanch doktoranti*
*gmail: saparovashahlo243@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada bolalar adabiyotini o'qitishning dolzarbligi, bolalar adabiyotini o'qitishning shart-shaoitlari yoritilgan. Bu maqolada asosan jadid ma'rifatparvarlarining bolalar adabiyotini o'qitishda yozgan asarlari keltirilgan. Shuningdek, maqolada bolalar adabiyotini o'qitishning ahamiyati haqida o'tgan asrimizning mashhur gazetasi "Maorif va o'qitg'uvchi"da berilgan maqola ham amaldagi yozuvimizga tadbil qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** *Jadidlarga atalgan tadbirlar, jadid ma'rifatparvarlarining asarlari orqali bolalar adabiyotini o'qitish, o'qish fani bolalar adabiyotining obyekti.*

***Annotation:*** *This article highlights the importance of teaching children's literature, the conditions for teaching children's literature. This article mainly presents the works written by modern enlighteners on teaching children's literature. Also, the article about the importance of teaching children's literature in the famous newspaper of the last century "Maorif va o'qitg'uvchi" was adapted to our current writing.*

***Keywords:*** *events dedicated to the ancients, teaching of children's literature through the works of modern enlighteners, reading is an object of children's literature.*

***Аннотация:*** *В данной статье освещается важность обучения детской литературе, условия обучения детской литературе. В данной статье в основном представлены работы, написанные современными просветителями по преподаванию детской литературы. Также к нашему нынешнему написанию была адаптирована статья о важности обучения детской литературе в известной газете прошлого века "Maorif va o'qitg'uvchi".*

***Ключевые слова:*** *мероприятия, посвященные древним, преподавание детской литературы через произведения современных просветителей, чтение как предмет детской литературы.*

O'zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2017 yil "Ilmu ma'rifat, dinu diyonat, bunyodkorlik bilan nom qozongan xalq" nomli ma'ruzasida: "Bu

ko'hna yurtda tug'ulib ijod qilgan Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Sadriddin Ayniy, singari ko'plab ma'rifat fidoyilarining ibratli hayoti bugungi kunda ham yurtimizda yangi jamiyat barpo etish, barkamol avlodni tarbiyalash, ma'naviyatimizni yuksaltirishda bizga beqiyos kuch bag'ishlab kelmoqda" –deb ta'kidlab o'tganlar.[136]

Shuningdek, Prezidentimizning farmon va farmoyishlariga ko'ra 2023-2024-yillar davomida jadid ma'rifatparvarlarimizning ijodini o'rganish jadallashib bormoqda. "Jadid" gazetasi, Jadidlar.uz platformasi, "Buyuk Jadidlarchilar izdoshlari" xalqaro almanax (maqolamizni e'lon qildik[137]) ining tashkil etilishi, "Jadidlar. Turkistonga maktublar" ko'rgazmasining ochilishi va boshqa tadbirlar bularga yorqin misoldir.

Bolalar adabiyotining rivojlanish tarixiga M.Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Mahbub ul-qulub" asarlari, Gulxaniyning masallari, hadis-u rivoyatlarimiz hissa qo'shgan bo'lsa, jadid ma'rifatparvarlarimiz M.Behbudiy, A.Avloniy, H.H.Niyoziy, S.Ayniy, A.Cho'lpon Va Elbeklar zamonaviy bolalar adabiyotining tamal toshini qo'ydilar.

Ma'rifatparvarlarning pedagogik, ayniqsa, axloqiy tarbiyaga doir merosini o'rganishda ularning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallab yozilgan axloqiy-ta'limiy darsliklari muhim o'rin egallaydi. Asrimiz boshlarida yaratilgan darsliklardan Maxmudxo'ja Behbudiyning "Kitobat-ul atfol" ("Bolalar maktubi"), Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adibi avval", "Adibi soniy", Sadriddin Ayniyning "Taxsib us-sibiyon", Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Qiroat", "Engil adabiyot", "O'qish kitobi", Muhammadjon ibn Rahimjonning "Odobli bola", Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni", "Adabiyot yoxud milliy she'rlar", Ishoqxon Ibratning "Jome'ul hutut", Saidrasul Aziziyning "Ustodi avval", Saidahmad Siddiqiyning "Aynul adab" ("Odob ko'zi"), "Ganjinomai hikmat" ("Hikmat xazinasi"), Abduqodir Shakuriyning "Rahnomai savod" ("Savod chiqarish rahbari"), "Jome'ul hikoyat" ("Hikoyatlar to'plami"), Ismatulla Rahmatullaevning "Alifbe ta'limi", Nizomiddin bin Mullo Husaynning "Ilmi axloq" kabi darsliklari Turkistondagi yangi usul maktablarida keng ko'lamda foydalanilgan. Bu

---

[136] Raximov Z. "Jadid pedagogikasi" o'quv-uslubiy majmua. Shahrisabz-2022. 196 bet.

[137] Amonov U.S., Saparova Sh.R. "Elbek yozg'ichlarining - bolalar adabiyotini o'qitishdagi ahamiyati" "Buyuk jadidchilar izdoshlari" Ilmiy va ijodiy to'plam. O'zbekiston: "Phoenix publication" nashriyoti, 2024. -650 bet.

darsliklarni nafaqat kichik yoshdagi o'quvchilar balki ularning opa-akalari va hattoki, ota-onalari ham sevib mutolaa qilganlar[138].

Bolalar adabiyotini shakllantirishning chora-tadbirlari xususida o'tgan asrimizning mashhur gazetasi "Maorif va o'qitg'uvchi"da ajoyib maqola berilgan bo'lib, ustozimiz Amonov Ulug'murod Sultonovich(BuxDPI dotsenti, PhD) bu maqolani eski o'zbek yozuvidan amaldagi yozuvga tabdil qildilar:

"Birinchidan, bolalarg'a yoziladirg'on bir asarning bolalar tilida bo'lishi mutlaqo kerak. Faqat bolalarg'a asar yozuvchilar bu shartni ko'b vaqt uniturlar. Bolalarg'a deb yozg'on asarlarning ichida anglashmaydirg'on kinoya, chuqur fikrlar qistirilib qo'yiladir. Yuqorida buning yaramaslig'ini so'ylab o'tdik.

Bolalarg'a adabiyot berishdan maqsad, ularni quruq mutolia ham o'qushg'a o'rgatish emas, balki u asarning ichida bo'lg'on tub o'yni onglata olish hamdir; tub o'yning anglashilishida tilning tushunarliq bo'lishining katta ta'siri bor, kim bu ham bo'lsa, yozilg'on asarning mutlaqo bolalar tilida bo'lishini talab etadir.

Bunday bo'lg'onda yozg'uvchilarning bolalar bilan gaplasha olishig'i iqtidori, sezgilari bilan tanish bo'lishlari kerak. Tabiiy bu iqtidor, bu tanishmoqliq bolalar bilan yaqinda ko'rishish; ularning ruhini tekshirish bilan bo'ladir. Mana shunday holda bolalarg'a yozg'an asarlarda muvaffaqiyat ko'rish mumkin.

Bundan keyin, bolalarg'a tantanali uslub bilan yozilg'on asarlarni berish yaramaydir. Bolalarg'a beriladirgan asarlarning sodda, ixcham jumlalalar va so'zlar bilan yozilishi shart, chunki ularning ruhlariga sodda, ixcham narsalar yoqadir. Va tilning ochilishida ochiq-oydin so'zga o'rgatishda muhim foydasi bor.

Asarning o'zi ham istar sochma, istar tizma uslubida yozilg'on bo'lsa bo'lsin, hajmcha kichik, ixcham bo'lishi shart, chunki uzun so'zlar[139] bolalarning o'ynoq ruhlarini tezdan charchatadir.

Bundan boshqa tizma asarlar to'g'risida bir qadar to'qtab o'tish kerak. Tizma asarlarning hofiza ustida katta ta'siri bor. Sochma asarlarni esda saqlash qiyin bo'lg'ani holda, tizmalarning eng uzunlari ham tezda yod

---

[138] Raximov Z. "Jadid pedagogikasi" o'quv-uslubiy majmua. Shahrisabz-2022. 196 bet.

[139] uzun so'zlar-hajman yirik asarlar (A.U.)

qilish, esga olish mumkin. Chunki she'rlarning bir qiymati ham hofizani tarbiya qilishidadir.

Faqat bolalarg'a yozilg'on she'rlarning, yuqorida so'ylanganidek og'ir so'zlar bilan, og'ir vazn bilan yozilg'on qismi bu qiymatga ega bo'la olmaydir. So'zda qanday ixchamlikka rioya qilinsa, vaznda ham shunday ixchamlik bo'lsin. Hatto vazniga bir chegara qo'ymoq istarsak: yetti-sakkiz hijodan ortiq bo'lg'onlari foydasizdir. She'rda ohang masalasi ham muhimdir. She'r qancha ohangli bo'lsa shuncha o'qilishi onson va zeriktirmaydigan bo'ladir.

Bundan keyin kitobcha shaklida bo'ladurg'on asarlarning texnikasi ham muhimdir. Kitobning boshqa jihatiga qanday ahamiyat bilan qaralsa texnikasiga ham shunday qiymat bilan qarash kerak.

Kitob qancha nafis bo'lsa uning ta'siri o'shal darajada jonli bo'ladir. To'g'risi, kitob nafis qog'ozda, yirik harflar bilan va asarning mavzuig'a oid jonli rasmlar bilan bezatilmagi kerak. Rasmlarning bolalarning maroq va havasini uyg'otishdag'i ruli[140] ma'lum. Bundan boshqa rasmning tub o'yining ochilishidag'i ko'magi juda kattadir. Bu xususida rus o'rtoqlarimiz bizga o'rnak bo'la oladirlar. Xulosa: kitob, kerak ichki tuzilishicha, kerak teshqi[141] tuzilishicha yuqorida so'ylangan bir ikki qoidag'a muvofiq tuzilsin. Bu qoidalarning tashqarisidag'i kitoblarning na pedagugiya[142], na didaktiga[143], na-da ruhiyat nuqtalaridan bir qimmatga ega bo'la olmaslig'i aniqdir. Bu xilda kitoblarni bolalar qo'lig'a berishdan ham tortinish lozim. Bugungacha tiriltirmagi kerak bo'lg'on bolalar adabiyoti haqida shu fikrlarni aytish bilan bolalar maroqlang'on ularni suygan shoir va adiblarimizning e'tiborlarini shu nuqtalarg'a jalb qilamiz.

**Olim.**

**"Maorif va o'qitg'uvchi" 1925-yil. 3-son, 30-32-betlar"**

**Taklif va tavsiyalar**: Hamma zamonda bolalar adabiyotini o'qitish dolzarb masala bo'lgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bolalar adabiyotini o'quvchilarning asosiy bo'g'inini tashkil etar ekan, ularni o'qituvchi insonlar esa boshlang'ich ta'lim yo'nalishining bitiruvchi talabalari bo'lajak o'qituvchilardir. Demak, avval oliy ta'limda shu yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar bolalar adabiyotini yaxshi o'zlashtirishi kerakdir.

[140] ruli-roli (A.U.)
[141] teshqi-tashqi (A.U.)
[142] pedagugiya-pedagogika (A.U.)
[143] didaktiga-didaktikasiga (A.U.)

Boshlang'ich sinf o'quvchisi 4 yil davomida bolalar adabiyotini, uning tur va janrlarini, bolalar yozuvchilarini, jadid ma'rifatparvarlarini asosan o'qish fani orqali tanir ekan, demak bolalar adabiyoti fanini ham bakalavriatda 60110400 shifr boshlang'ich ta'lim yo'nalishida 4 yilga mo'ljallab o'qitish lozim. Sababi, bu fanning nazariy asoslarini o'rganibgina qolmay, fanni o'qitishning metodikasini ushbu fan doirasida o'rgansa bo'lajak o'qituvchilar uchun samarali natijalarga erishiladi. Xususan, hozir ko'p maktablarda qo'llanilayotgan badiiy asarlarni o'qib tushunishini tekshiruvchi PISA, PIRLS kabi xalqaro dasturlarning ham asosi bolalar adabiyotini o'qitish bilan bog'liq aslida. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bu kabi tekshiruv testlaridan yuqori baholarni olishi uchun, uning ustozi nafaqat nazariy bilimga ega, balki bolalar adabiyotining metodik ustasi bo'lishi darkor.

**Adabiyotlar:**


1. Amonov U.S. O'zbek folklorshunosligi xrestomatiyasi. Toshkent: "Paradigma", 2018-yil, 99-120-betlar.
2. Amonov U.S. Armug'on yolqinlar. Toshkent: "Turon zamin ziyo" 2017.
3. Amonov U.S. O'zbek tili. Toshkent: "Muharrir" nashriyoti. 2011.
4. Amonov U. S. Turkiston o'lkasida usuli jadid maktablarining shakllanish jarayoni, muammolari va taraqqiyoti //Pedagogs jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 412-414.
5. Амонов У. С. Научный подход а. Фитрата к пословицам //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
6. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in Elbek's interpretation //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407. 8.
7. Amonov Ulug'murod Sultonovich, Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek – bolalar adabiyotini o'qitish metodikasining asoschisi" "Ayniy vorislari" 2023-yil.73-77-betlar. https://buxdu.uz/media/jurnallar/ayniy/ayniy_vorislari_1_2023.pdf.
8. Amonov U. S. Folklore in the works of Abdurauf Fitrat //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.

https://www.researchgate.net/publication/309593503_FOLKLORE_IN_THE_WORKS_OF_ABDURAUF_FITRAT
https://www.semanticscholar.org/paper/FOLKLORE-IN-THE-WORKS-OF-

ABDURAUF-FITRAT
Amonov/dcc79abce08ba4602c2dc5b5ae3a87b345797d63

9. Amonov U. S. Abdurauf Fitrat is one of the earliest researchers of uzbek folklore. "Academicia" An International Multidisciplinary Research Journal, India. June 2020. 669-673p. DOI:10.5958/2249- 7137.2020 https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=10&issue=6&article=096

10. Amonov U.S. Jadidchilik harakati va "Buxoroyi sharif" ro'znomasi. "Ta'lim va innovatsiyalar" jurnali №5. 2022-may. 62-68-betlar. http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1183/448

11. Amonov U.S. Новые грани творческого наследия Элбека. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2020 yil. 4-son. 62-63-betlar.

12. Jamilova B.S. O'zbek bolalar adabiyoti: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Noshir nashriyoti, 2019. – 312 b.

13. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti: darslik-majmua. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – 368-b.

14. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor: darslik. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 216-b.

15. Jumaboyev M. O'zbek va chet el bolalar adabiyoti: darslik. – Toshkent: "O'zbekiston", 2002. – 232-b.

16. Mirzayev Saydulla. XX asr o'zbek adabiyoti : darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 396 b.

17. Qurbonov Y. "Siz doimo qalbimizdasiz" (2-kitob) – Buxoro: Durdona nashriyoti, 2018. -212-b.

18. Saparova Shahlo Ramazonovna. Elbekning Asarlaridan Foydalanib Bolalar Adabiyotini O'Qitish Metodikasini Takomillashtirish. Miasto przyszlosci. Vol. 46(2024) 221-226-b. https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2834/2603

19. Saparova Sh.R. "The classification of Elbek poems in 5 directions" ped_mahorat@umail.uz 2021-yil, dekabr. 175-bet.

20. Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek o'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasining asoschisi" Boshlang'ich ta'lim mazmunini takomillashtirish: o'quv dasturi-o'qituvchi-baholash xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro-2023. 352-355-betlar

21. Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek philologist, teacher, children's poet" "Boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendentsiyalari: Ta'lim

va tarbiya integratsiyasi" III Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi Jizzax shahri. 2023-yil 4-may. 75-78-betlar

22. Saparova Shahlo Ramazonovna "Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Elbekning yaratgan darsliklari" "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2023-yil aprel. 68-77-betlar. https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52 https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52/128

23. Saparova Sh.R. "Both creative and teacher" Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: Zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar xalqaro-ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2023-yil 15-may. 230-232-betlar.

24. Saparova Shahlo Ramazonovna "Jadidchi Elbekning bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirishdagi hissasi" Journal of universal science research. 15.12.2023. ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12. 246-256-betlar. https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/3289

25. Saparova Shahlo Ramazonovna. Improving the Methodology of Teaching Children's Literature Using Elbek's Textbook "Go'zal yozg'ichlar" AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM EducationVolume 01, Issue 10, 2023ISSN (E): 2993-2769. P-564-572 View of Improving the Methodology of Teaching Children's Literature Using Elbek's Textbook "Go'zal yozg'ichlar" (grnjournal.us)

26. Saparova Shahlo Ramazonovna "Implementation Of Elbek's works in teaching children's literature" https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/view/504/584

27. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti: darslik. – Buxoro : "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2019. – 428 b.

28. Safarov O., Jamilova B., Safarova N. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015.– 356b.

29. Vohidov R., Mahmudov M. Ustod Sadriddin Ayniy saboqlari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2004. – 319-b.

**BUXOROLIK JADILAR TOMONIDAN GERMANIYAGA YUBORILGAN YOSH BUXOROLIK OMONULLA NUSRATILLOYEVNING AYANCHLI QISMATI**
*Sobirov Ulug'bek G'ofurovich*......435

**JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHIDA AHMAD ZAKIY VALIDIYNING O'RNI**_*Toshtemirova Saodat Abdurashidovna, Quldosheva Shahrizoda Nurali qizi*......439

**MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING TARIXGA OID MAQOLALARI TAHLILI**_*Raxmatxonov Ayubxon Jahongir o'g'li*......443

**SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA PEDAGOGIK QARASHLAR IFODASI**_*Qurbonova Nigina Boboxo'jayevna*......447

**JADIDLARNING PEDAGOGIK QARASHLARI VA MILLIY TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLARI**_*Urunov Shoxijahon Jamshidovich*......454

**BOLALAR ADABIYOTINI O'QITISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**_*Saparova Shahlo Ramazonovna*......461

**TRAVELOGUES AS CATALYSTS FOR CULTURAL PRESERVATION: UNDERSTANDING THE LEGACY OF THE JADIDS IN UZBEK HERITAGE**_*Ismailova Sitora Nokulovna*......468

**THE FOUNDER OF JADIDISM ISMA'IL GASPIRALI CLASSIFIED ACTIVITIES**_*Zhurayeva Zuhra,_Нигматов А. Х.*......474

**JADIDLAR VA MAORIF**_*To'xtayeva Shahinabonu Shuxrat qizi*......478

**ЖАДИДЧИЛИК ТАРИХИ. ТАНБУРИЙ ҚИСМАТИ**
*Шарофат Ашурова*......483

**ИЗУЧЕНИЕ ДЖАДИДИСТСКОГО ДВИЖЕНИЯ ЗА РУБЕЖОМ**
***Хасанова Гульшод Касимовна***,_*Шарапова Ангелина Замировна*......491

**РАЗЛИЧНЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЖАНРА БАСНИ В ТВОРЧЕСТВЕ ДЖАДИДСКИХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА АБДУЛЛЫ АВЛОНИ)**_*Агламов Тохир Хусаинович*......495

**BUXORODA JADIDCHILIK HARAKATINING PAYDO BO'LISH OMILLARI VA ULARDA PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTIGA MUNOSABAT MASALASI**_*Aslonov Madamin Mansurovich*......498

**ЖАДИДЛАР НИГОҲИДА ВАТАН ТАРИХИ_(АБДУРАУФ ФИТРАТ МИСОЛИДА)**_*Аҳмадова Зебинисо Шавкатовна*......509